


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda ba'zan uchinchi sektor deb ataluvchi xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 68634,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 13405,5 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 13,2 % ni tashkil etdi.




2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
O'zbekiston Respublikasi	68634,9	113,2	2060,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2093,3	119,0	1117,9
viloyatlar:			
Andijon	3574,0	111,6	1163,4
Buxoro	2915,0	113,2	1536,3
Jizzax	1474,6	121,2	1088,0
Qashqadaryo	3078,8	109,7	956,3
Navoiy	1739,0	113,2	1772,5
Namangan	2726,4	113,2	988,5
Samarqand	4466,8	110,4	1173,5
Surxondaryo	2526,9	112,3	981,2
Sirdaryo	909,2	120,7	1093,5
Toshkent	4919,5	109,1	1694,7
Farg'ona	4114,1	111,8	1115,1
Xorazm	2042,6	115,6	1111,1
Toshkent shahri	22684,5	117,0	9014,7

2019-yil yanvar-may oylarida Jizzax (121,2 %), Sirdaryo (120,7 %), Xorazm (115,6 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (119,0 %) va Toshkent shahri (117,0 %) etakchi o'rinni egalladi.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Toshkent shahri xizmatlar sohasining yuqori o'sish sur'atlari, boshqa hududlardan farqli ravishda, aholining real daromadlari yuqoriligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, yakuniy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish uchun infratuzilmani rivojlantirish, ushbu hududda turli xil xizmat turlarini ko'paytirish uchun turtki hisoblanadi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 33,1 % ni tashkil etadi. Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,0 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etilgan.

2019-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,1 %), Navoiy (2,5 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi (3,0 %).

Hudud - bu mamlakat iqtisodiyotining hududiy jihatdan alohida qismi hisoblanadi. Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotning murakkab rivojlanishi va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 371,6 ming so'mga oshdi va 2060,1 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish 11,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar (o'sish sur'atlari), %




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Jizzax (18,7 %) Sirdaryo (18,6 %), Xorazm (13,6 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (17,2 %) va Toshkent shahrida (14,9 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qashqadaryo (107,5 %), Toshkent (107,6 %) va Samarqand (108,1 %) viloyatlarida qayt etildi.

Aholi soni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich kichikroq bo'lgan hududlarda, aholi jon boshiga hajmi ko'proq to'g'ri keladi. Misol uchun, 2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra, Navoiy viloyatida bu ko'rsatkich 981,1 ming kishini tashkil etdi, 2019-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1772,5 ming so'm qayt etildi.


2019-yil yanvar-may oylarida ayrim hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni taqqoslanishi



Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyatida aholi soni 3 baravar ko'p (3219,4 ming kishi), biroq aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 956,3 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida transport, savdo, moliyaviy va ta'lim xizmatlari hajmining o'sishi kuzatildi.

2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm



Bunday hajmning oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanishi mumkin, jumladan: Internet-sotish, yangi savdo markazlari, oziq-ovqat tashkilotlari, mehmonxonalarni ochish, ta'lim muassasalari xizmatlarini kengaytirish, ko'ngilochar industriyasida katta tanlov kabi yangi turdagi xizmatlar bozoriga chiqish.

**2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	68634,9	113,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3849,7	107,8
Moliyaviy xizmatlar	12292,7	159,5
Transport xizmatlari	20217,6	104,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	8965,0	101,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1998,2	105,5
Savdo xizmatlari	17344,7	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2101,7	104,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2384,9	121,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	991,4	118,0
Ijara xizmatlari	1369,9	101,6
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1133,0	103,3
Shaxsiy xizmatlar	1679,7	104,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1159,2	129,9
Boshqa xizmatlar	2112,2	103,6

Ma'lumot uchun : *xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra - "kuchli moliyaviy ahvol, jumladan, davlat qarzi pastligi va byudjet kamomadining keskin qisqarishi, kuchli iqtisodiy o'sish, daromadli va yaxshi kapitallashgan bank tizimi mamlakatning kredit afzalligi bo'lib qolmoqda" (<https://raexpert.eu/>).*

Bugungi kunda O'zbekiston moliya-bank tizimi barqaror bo'lib, qat'iy belgilangan xalqaro standartlarga javob beradi. So'nggi yillarda soddalashtirilgan kreditlash jarayoni tadbirkorlar va xorijiy investorlar uchun qulaylik yaratmoqda.

2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 159,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (129,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (121,0 %), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (118,0 %) qayd etildi.

Ma'lumot uchun:



2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Moliyaviy xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Transport xizmatlari



Услуги, связанные с недвижимым имуществом



Shaxsiy xizmatlar



Savdo xizmatlari



Boshqa xizmatlar




Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari



Ijara xizmatlari

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmog'ini kengaytirish, binolar va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni davom etishi bilan bog'liq.

2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Joriy davrda, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ularning ulushi 29,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng katta ulush savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,5 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (3,1 %) kuzatildi.

Bugungi kunda O'zbekiston barcha yo'nalishlarda va transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga va ulkan transport salohiyatiga ega.

2019-yil yanvar-may oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Bu transportning harakatchanligi hamda havo va temir yo'l transporti bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 44,3 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 23,4 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,8 % ga etdi . Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 10,4 %, yordamchi transport faoliyati esa – 8,1 % qayd etildi.

Savdoning iqtisodiy mohiyati - ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga sotish va sotib olish yo'li bilan tovarlarni sotishga vositachilik qilishdan iborat. Savdo, faoliyat sohasi sifatida pul muomalasi va mamlakatning moliyaviy tizimi bilan chambarchas bog'liq. Savdo orqali tovarlarning asosiy qismi ularni bank sohasiga muntazam ravishda tushib turadigan aholining pul daromadlariga almashtirish orqali sotiladi

2019-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 17344,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 25,3 % ni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari



Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uchi - 67,2 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-may oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,4 % ga yetdi.

2019-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Respublikaning moliya-bank tizimini isloh qilish, erkinlashtirish va barqarorligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliya-bank tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida alohida barqarorlikni ta'minlash, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro standartlarga muvofiq faoliyatni yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirish, shuningdek ushbu tizimga aholining ishonch darajasini oshirishga qaratilgan.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari




2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 12292,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 159,5 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (99,1 %), Jizzax (93,2 %), Namangan (85,9 %), Buxoro (78,8 %) Navoiy (75,3 %), viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (82,4 %) kuzatilmoqda.

Shu davr uchun boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'atlari Toshkent shahri (147,0 %), Qashqadaryo(151,5 %) va Toshkent viloyatida (152,8 %) sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,9 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning tarkibi,%



Ushbu xizmatlarning ulushi Surxondaryo (94,1 %), Sirdaryo (93,5 %), Qashqadaryo (93,2 %), Samarqand (92,5 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (92,1 %) ahamiyatga ega. Eng past ko'rsatkich Toshkent viloyatida (86,0 %) qayd etildi.

Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent viloyatida ustunlik qiladi. 2019-yil yanvar-may oylarida bu ko'rsatkich 12,7 % ga etdi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida qayd etilib, foiz nisbatida 5,0 % ni tashkil etdi.


Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hisoblanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi vosita sifatida boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirdi va mukammallashtirdi hamda ilm-fanga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotning shakllanishiga, inson intellektual mehnatining mahsuli bo'lgan axborot va mahsulotlari foydalanilishiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

2019-yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 3849,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 7,8 % ga etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 83,1 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, %




Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (99,1 %), Sirdaryo (98,0 %) va Samarqand (97,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Toshkent shahri nisbatan past ko'rsatkich 70,6 % qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari 5,5 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 5,0 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 2,9 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 2,9 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-may oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




Televidenie dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng kam ulushni 0,6 % ni tashkil etadi.

Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.


2019-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2384,9 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 21,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar ko'rsatkichlarini taqqoslanishi



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-may oylarida 1000,2 mlrd. so'mga yetdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslanishi, %



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Xorazm viloyatida 153,9 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (144,8 %), Jizzax (138,2 %) Sirdaryo (125,3 %), Qashqadaryo (121,1 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (134,7 %) qayd etildi.


2019-yil yanvar-may oylarida eng past o'sish sur'ati Surxondaryo viloyatida – 97,0 % qayd etildi.

***Ma'lumot uchun:** hozirgi vaqtda onlayn rejimida AIC «Kundalik» elektron tizimining yordami bilan ota-onalar o'z farzandlarining darslarni o'zlashtirishini nazorat qilishlari, maktab direktorlari, o'qituvchilari va bir-biri bilan bevosita muloqot qilishlari mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilar o'z dunyo qaralarini va AKT sohasida ko'nikmalarini kengaytirib, qiziqishlariga qarab turli guruhlarni yaratish imkoniga ega.*

Tizim dars jadvallarini tuzish, o'qituvchilarning dars rejalarini tuzish, elektron jurnal va kundaliklarda o'quvchilarni darslarga qatnashish va darslarni o'zlashtirishni qayd etish imkonini beradi.

2019-yil may oyida bi tizimda Toshkentda eng ko'p tashriflar (21 ming marta) qayd etildi. Eng faol maktablar reytingini Mirobod tumanidagi 158-sonli maktab boshqaradi (<https://kundalik.com/>).

Ma'lumot uchun:




[\(https://kundalik.com/\)](https://kundalik.com/)

2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 5,5 % ga o'sdi, hajmi esa 328,8 mlrd. so'mga oshdi va 1998,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,5 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida 872,0 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan 139,5 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Sirdaryo viloyatida esa eng kichik hajm – 22,4 mlrd. so'm qayd etildi. O'tgan yilga nisbatan bu hajm 3,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2019-yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**




2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

2019-yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 991,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %




Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy xizmatlar hajmidagi eng kichik ulushi (1,4 %) bo'lishiga qaramasdan, ularning o'sishi 20,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (135,6 %), Qashqadaryo (128,2 %), Toshkent (120,0 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (126,1 %) qayd etilgi.

2019-yil 1-iyun holatiga respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan tashkilot va korxonalar soni 366,2 ming birlikga teng bo'ldi, ulardan 242,6 ming birligi xizmatlar sohasiga jalb qilingan, bu ularning umumiy sonining 66,3 % ni tashkil etdi.


2019-yil 1-iyun holatiga
korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-iyun holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (36,6 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-iyun holatiga, xizmatlar sohasida 202,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari (33,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (9,0 %), tashish va saqlash (6,2 %), axborot va aloqa (3,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3,1 %), boshqa turlar - 45,3 % tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning sonini taqqoslasak, 2019-yil 1-iyun holatiga kelib u, 40,4 ming birlikga, o'sish sur'ati 20,0 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi va yuqori sifati, odamlarning salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, bo'sh vaqtni ko'payishiga inkon beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59